



Bakirova Nargizaxon Batiraliyevna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA KOMPLEKS SOTSIOLOGIK MODEL

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.450>

Annotatsiya. Maqolada kasbiy ta'lim muassasalarini tamomlagan xotin-qizlarning mehnat bozoriga integratsiyasi jarayoni sotsiologik tahlil qilingan. Empirik ijtimoiy so'rov natijalari asosida kasbiy ta'lim bitiruvchilarining bandlik holati, ishga joylashishdagi asosiy to'siqlar hamda samarali bandlikka ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalariga tayanilgan holda xotin-qizlar bandligini ta'minlashning kompleks sotsiologik modeli ishlab chiqilgan va amaliy tavsiyalar taklif etilgan. Mazkur model ta'lim, ijtimoiy kapital, institutsional qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy-madaniy muhit o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka asoslanadi.

Tayanch so'zlar: xotin-qizlar bandligi, kasbiy ta'lim, samarali bandlik, ijtimoiy kapital, mehnat bozori, sotsiologik model.

Аннотация. В статье представлен социологический анализ процесса интеграции женщин, окончивших учреждения профессионального образования, на рынок труда. На основе результатов эмпирико-социологического опроса выявлены состояние занятости выпускниц профессионального образования, основные барьеры трудоустройства, а также социальные факторы, влияющие на формирование эффективной занятости. По итогам исследования разработана комплексная социологическая модель обеспечения занятости женщин и предложены практические рекомендации. Данная модель основана на взаимосвязи образования, социального капитала, институциональной поддержки и социально-культурной среды.

Ключевые слова: занятость женщин, профессиональное образование, эффективная занятость, социальный капитал, рынок труда, социологическая модель.

Annotation. The article presents a sociological analysis of the integration process of women who have graduated from vocational education institutions into the labor market. Based on the results of an empirical sociological survey, the study identifies the employment status of female vocational education graduates, the main barriers to their employment, as well as social factors influencing the formation of effective employment. Drawing on the research findings, a comprehensive sociological model for ensuring women's employment has been developed, along with practical recommendations. This model is based on the interrelation of education, social capital, institutional support, and the socio-cultural environment.

Keywords: women's employment, vocational education, effective employment, social capital, labor market, sociological model.

Kirish. Har bir inson yaxshi kiyinish va Kovqatlanishga, sifatli ta'lim va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga, mazmunli dam olishga, bir so'z bilan aytganda, farovon yashashga intiladi. Muhimi – bu jarayonda tadbirkorlarimiz

hal qiluvchi kuch sifatida eng oldingi safda turib, sanoat va servis obyektlarini tashkil qilib, doimiy ish o'rni yaratishda, aholimiz, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni kasbga o'rgatib, mahallalarning o'zida ishli va daromadli qilishda alohida jonbozlik

ko'rsatmoqda. Shuning uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosatimizni davom ettirib, 2026-yilda asosiy soliq stavkalarini o'zgarishsiz qoldiramiz; tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalariga 10 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratiladi; kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so'm resurs beriladi. Shundan 43 trillion so'mi xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi¹.

Hozirgi globallashuv jarayonlari va mehnat bozorining chuqur transformatsiyasi sharoitida aholining iqtisodiy faolligini ta'minlash, xususan, xotin-qizlarning barqaror bandligini oshirish masalasi ijtimoiy barqarorlik, inson kapitali rivoji hamda iqtisodiy o'sishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mehnat bozorida xotin-qizlar ishtirokining kengayishi nafaqat oila daromadlarini oshiradi, balki ijtimoiy tenglik, ijtimoiy integratsiya va jamiyatning institutsional barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalarini tamomlagan xotin-qizlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishi masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy ta'lim tizimi mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda mazkur tizim bitiruvchilarining, jumladan, xotin-qizlarning barqaror va rasmiy ish o'rinlariga joylashishida qator muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, kasbiy ta'limga ega bo'lishning o'zi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan amaliy ko'nikmalar va ish tajribasi bilan doim ham uyg'un kelmasligi aniqlanmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim mavjud bo'lishiga qaramasdan, xotin-qizlar orasida ishsizlik va norasmiy bandlik ulushi saqlanib qolmoqda. Bu holat mehnat bozori talablari bilan ta'lim tizimida shakllanayotgan kasbiy kompetensiyalar o'rtasida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ish beruvchilar tomonidan genderga oid stereotipik munosabat, oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq cheklovlar hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmagani xotin-qizlarning mehnat bozoriga kirib borishini qiyinlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda xotin-qizlar bandligi, asosan, inson kapitali nazariyasi, gender tengligi yoki mehnat bozorining institutsional mexanizmlari nuqtayi nazaridan alohida o'rganilgan. Biroq bandlikka ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va

madaniy omillarning o'zaro bog'liqligi yetarlicha kompleks tarzda tahlil qilinmagan. Bu esa xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalasini ko'p bosqichli va tizimli ijtimoiy jarayon sifatida qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmonida kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta'limning barcha darajalari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko'p tarmoqli o'quv muassasalari tizimini joriy qilish va kasbiy ta'lim sohasida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta'lim tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish belgilangan².

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarorida kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari kompetensiyasini ko'rgazmali-amaliy imtihon shaklida baholashda talab etiladigan xomashyo va yonilg'i moylash materiallarini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar tegishli ta'lim tashkilotlariga respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar, to'lov-kontrakt hamda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur xulosalarni asoslash maqsadida joriy yilning iyul-avgust oylarida professional ta'lim muassasalarini tamomlagan 1 238 nafar xotin-qiz o'rtasida maxsus ijtimoiy so'rov o'tkazildi. So'rovning asosiy maqsadi kasbiy ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoriga kirib borishi holati, ishga joylashishdagi to'siqlar va samarali bandlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat bo'ldi.

Ijtimoiy so'rov respublika hududlarida joylashgan kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasida o'tkazildi. Tadqiqotda kvotali tanlanma usuli qo'llanilib, hududiy, yosh va kasbiy yo'nalish kesimlari inobatga olindi. Ma'lumotlar to'plash

¹ <https://gov.uz/oz/news/view/114575>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

usuli sifatida strukturalashgan anketa so'rovi hamda qisman yarim strukturalashgan intervyu usulidan foydalanildi.

Olingan empirik ma'lumotlar deskriptiv statistika, taqqoslama tahlil hamda korrelyatsion usullar yordamida qayta ishlandi. Tahlil jarayonida bandlik holati, ta'lim tajribasi va ijtimoiy kapital ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlandi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi va tahlilning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo'lida kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Buning uchun, 2026-yildan boshlab, har yili kamida 100 tadan texnikumni to'liq ta'mirlab, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab boramiz. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar sonini 100 taga yetkazamiz.

Bugun sizlarga yana bir yangilikni yetkazmoqchiman: 2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "Kasblar shaharchasi" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bunda ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari hududdagi boshqa texnikumlar uchun metodik va amaliyot bazasi sifatida faoliyat yuritisa, "Kasblar shaharchasi" – maktab o'quvchilarini qurilish, servis, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, "yashil" energetika kabi sohalaridagi zamonaviy kasblarga yo'naltirishga xizmat qiladi³.

So'rov natijalari kasbiy ta'lim bitiruvchilarining katta qismi o'z mutaxassisligi bo'yicha barqaror ishga joylasha olmaganini ko'rsatdi. Ish bilan band respondentlarning sezilarli qismi norasmiy sektorda faoliyat yuritmoqda. Bu holat ta'lim tizimida shakllangan kasbiy kompetensiyalar bilan mehnat bozori talablari o'rtasida muayyan uzilish mavjudligini anglatadi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.

Ishga joylashishda uchraydigan asosiy to'siqlar

To'siq turi	Respondentlar ulushi, foiz
Ish tajribasining yo'qligi	42,8
Ish beruvchilarning gender stereotiplari	31,5
Oilaviy majburiyatlar	28,9
Mehnat bozori haqida axborot yetishmasligi	19,6
Kasbiy ta'lim sifati yetarli emas	17,2

Eng asosiy to'siq sifatida ish tajribasining yo'qligi ko'rsatilgani kasbiy ta'lim tizimida amaliy tayyorgarlikning yetarli emasligini ochib beradi. Gender stereotiplari va oilaviy majburiyatlar esa xotin-qizlar bandligida iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy cheklovlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kasbiy ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatilgan institusional yordam bahosi, foiz hisobida

Yordam turi	Yetarli	Qisman	Yo'q
Karyeraga yo'naltirish	18,7	34,5	46,8
Ish beruvchilar bilan bog'lash	15,9	29,6	54,5
Amaliyot joyi bilan ta'minlash	32,1	41,7	26,2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ta'lim muassalarining bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyorlashdagi institusional roli cheklangan. Ayniqsa, ish beruvchilar bilan bog'lash va ishga joylashishga ko'maklashish funksiyalari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat ta'lim va mehnat bozori o'rtasida tizimli hamkorlik yetishmayotganini ko'rsatadi⁴.

Jadvallar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim bitiruvchilarining bandligi ta'lim darajasidan ko'ra amaliy tayyorgarlik, ijtimoiy kapital va institusional qo'llab-quvvatlash darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha samarali siyosat ta'lim, mehnat bozori va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanishi lozim.

⁴ Coleman J.S. "Social Capital in the Creation of Human Capital." *American Journal of Sociology*, 1988, Vol. 94 (Supplement), pp. S95-S120.

Olingan natijalar xorijiy va mahalliy tadqiqotlar bilan umumiy qonuniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, inson kapitali nazariyasiga tayanadigan tadqiqotlarda ta'lim darajasining o'zi mehnat bozorida barqaror bandlikni kafolatlamasligi ta'kidlanadi. Mazkur tadqiqot ham ushbu xulosani tasdiqlab, amaliy tayyorgarlik va ish tajribasi yetishmasligi xotin-qizlar bandligida hal qiluvchi cheklov ekanini ko'rsatdi⁵.

Gender stereotiplari va oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq natijalar gender mehnat segregatsiyasi haqidagi tadqiqotlar bilan uyg'un keladi. Boshqa tadqiqotlarda ham xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini cheklovchi omillar sifatida ijtimoiy rollar va institutsional moslashuv muammolari qayd etilgan. Bu holat "Nega aynan shunday natija olindi?" degan savolga javob sifatida, bandlik muammosini faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda izohlash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, dual ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotining ijobiy ta'siri institutsional yondashuv nuqtayi nazaridan izohlanadi. Bunday mexanizmlar inson kapitali bilan mehnat bozori o'rtasida "bog'lovchi ko'priq" vazifasini bajaradi va ish tajribasi muammosini qisman bartaraf etadi. Demak, olingan natijalar tasodifiy emas, balki ta'lim, institutsional muhit va ijtimoiy kapital o'rtasidagi tizimli bog'liqlik natijasidir⁶.

O'tkazilgan nazariy tahlil va empirik ijtimoiy so'rov natijalari xotin-qizlar bandligini ta'minlash muammosi yakka institutsional choralar bilan emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarning o'zaro uyg'unligiga asoslangan kompleks yondashuvni talab etishini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot doirasida xotin-qizlar bandligini ta'minlashning kompleks sotsiologik modeli ishlab chiqildi⁷.

Taklif etilayotgan model xotin-qizlarning mehnat bozoriga kirib borishi va unda barqaror faoliyat yuritishini ko'p bosqichli ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlashning kompleks sotsiologik modeli

Bos-qich	Bosqich nomi	Asosiy mazmun	Asosiy mexanizmlar
1-bos-qich	Inson kapitali va kasbiy tayyorgarlik	Ta'lim darajasi, kasbiy bilim, amaliy ko'nikmalar shakllanishi	Dual ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti, amaliy mashg'ulotlar
2-bos-qich	Ijtimoiy kapital va tarmoqlar	Ijtimoiy aloqalar, mentorlik, kasbiy tarmoqlar	Oila, mahalla, ta'lim muassasalari orqali aloqalar, tavsiyalar
3-bos-qich	Institutsional qo'llab-quvvatlash	Davlat, ta'lim muassasasi va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik	Karyera yo'naltirish, ish beruvchilar bilan bog'lash, huquqiy himoya
4-bos-qich	Ijtimoiy-madaniy muhit	Gender stereotiplari, oilaviy majburiyatlar, jamoatchilik munosabati	Axborot-targ'ibot, genderni sezgir siyosat, oilaviy qo'llab-quvvatlash
5-bos-qich	Mehnat bozoriga moslashuv va samarali bandlik	Rasmiy, barqaror va ijtimoiy himoyalangan ish bilan ta'minlanish	Barqaror ish o'rni, munosib mehnat sharoiti, kasbiy o'sish

Ushbu model xotin-qizlar bandligini ketma-ket va o'zaro bog'liq ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi. Har bir bosqich keyingi bosqichning samaradorligini belgilab beradi va yakunda rasmiy, barqaror hamda ijtimoiy himoyalangan bandlikka olib keladi.

Birinchi bosqich inson kapitali va kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lib, u ta'lim darajasi, kasbiy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuyini o'z ichiga oladi. Empirik ma'lumotlar amaliy tayyorgarlik (dual ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti) ka ega bo'lgan xotin-qizlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari yuqoriroq ekanini ko'rsatdi⁸.

Ikkinchi bosqichda ijtimoiy kapital hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oila, mahalla, ta'lim muassasalari va kasbiy tarmoqlar orqali shakllangan

⁵ Bourdieu P. "The Forms of Capital." In: Richardson J. (ed.) *Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education*. — New York: Greenwood Press, 1986, pp. 241–258.

⁶ Granovetter M.S. "The Strength of Weak Ties." *American Journal of Sociology*, 1973, Vol. 78(6), pp. 1360–1380.

⁷ ILO. *World Employment and Social Outlook: Trends for Women*. — Geneva: International Labour Organization, 2018.

⁸ Kabeer N. *Reversed Realities: Gender Hierarchies in Development Thought*. — London: Verso, 1994.

ijtimoiy aloqalar, mentorlik munosabatlari va tavsiyalar xotin-qizlarning ishga joylashish ehtimolini oshiradi. Bu bosqich mehnat bozoriga kirishda norasmiy resurslarning muhimligini tasdiqlaydi⁹.

Uchinchi bosqich institutsional qo'llab-quvvatlash bilan tavsiflanadi. Davlat siyosati, ta'lim muassasalari, mehnat organlari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik inson kapitali va ijtimoiy kapitalni mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog'lovchi mexanizm vazifasini bajaradi. Karyeraga yo'naltirish, ish beruvchilar bilan bog'lash va huquqiy himoya choralari mazkur bosqichning asosiy tarkibiy elementlaridir.

To'rtinchi bosqich ijtimoiy-madaniy muhit ta'siri bilan bog'liq. Gender stereotiplari, oilaviy majburiyatlar va jamoatchilik munosabati xotin-qizlar bandligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Model doirasida ushbu omillar o'zgarish cheklov emas, balki maqsadli siyosat va axborot-targ'ibot ishlari orqali boshqarilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi¹⁰.

Yakuniy bosqich mehnat bozoriga moslashuv va samarali bandlik bilan ifodalanadi. Samarali bandlik rasmiy mehnat munosabatlari, barqaror daromad, munosib mehnat sharoiti va kasbiy o'sish imkoniyatlarini qamrab oladi. Ushbu holatga erishish avvalgi bosqichlarda shakllangan inson kapitali, ijtimoiy kapital, institutsional qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy-madaniy muhitning uyg'unligi natijasida ta'minlanadi.

Shu tariqa taklif etilgan kompleks sotsiologik model xotin-qizlar bandligini yakka iqtisodiy ko'rsatkich emas, balki uzoq muddatli va barqaror ijtimoiy integratsiya jarayoni sifatida talqin qilish imkonini berib, mehnat bozori siyosati va ta'lim tizimini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yakuniy qism. Tadqiqot natijalari professional ta'limga ega bo'lishning o'zi mehnat bozorida barqaror va rasmiy bandlikni kafolatlamasligini tasdiqladi. Amaliy tayyorgarlikning yetishmasligi, ish beruvchilar tomonidan mavjud gender stereotiplari hamda oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq cheklovlar xotin-qizlarning mehnat bozoriga kirib borishini qiyinlashtiruvchi asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari tomonidan karyeraga yo'naltirish va

ishga joylashishga ko'maklashish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmagani ham aniqlandi. Biroq empirik tahlil dual ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti hamda ijtimoiy aloqalarga ega bo'lish mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyani sezilarli darajada rag'batlantirishini ko'rsatdi. Bu holat inson kapitali bilan bir qatorda ijtimoiy kapital va institutsional hamkorlikning ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida xotin-qizlar bandligini ta'minlashda ishtirok etuvchi asosiy subyektlar hamda ularni amalga oshirishning institutsional darajalari bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Davlat darajasida xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan siyosat kasbiy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi institutsional uzilishni bartaraf etishga yo'naltirilishi lozim. Xususan, kasbiy ta'lim bitiruvchilari uchun dual ta'lim, stajirovka va ilk ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantiruvchi normativ-huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Hududiy darajada esa mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda xotin-qizlar bandligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.

2. Kasbiy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini mehnat bozori talablariga moslashtirish, amaliy tayyorgarlik ulushini oshirish hamda bitiruvchilar uchun karyera yo'naltirish xizmatlarini institutsional darajada yo'lga qo'yish zarur. Ayniqsa, ish beruvchilar bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik mexanizmlarini joriy etish va bitiruvchilarni kuzatish tizimini yo'lga qo'yish xotin-qizlarning mehnat bozoriga moslashuvini yengillashtiradi.

3. Ish beruvchilar tomonidan genderga sezgir kadr siyosati mexanizmlarini joriy etish, xotin-qizlar uchun moslashuvchan ish vaqti, qisman bandlik va masofaviy ish shakllarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu chora-tadbirlar oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq cheklovlarni yumshatib, rasmiy va barqaror bandlikka o'tishni rag'batlantiradi.

4. Mahalla va jamoatchilik institutlari orqali xotin-qizlar mehnat faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, gender stereotiplarini kamaytirishga qaratilgan axborot-targ'ibot ishlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. Bu ijtimoiy-madaniy muhitni xotin-qizlar bandligini qo'llab-quvvatlovchi omilga aylantirishga xizmat qiladi.

⁹ Standing G. *The Precariat: The New Dangerous Class*. – London: Bloomsbury Academic, 2011.

¹⁰ Polanyi K. *The Great Transformation: The Political and Economic Origins of Our Time*. – Boston: Beacon Press, 2001 (orig. 1944).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weber M. Wirtschaft und Gesellschaft. – Tübingen: Mohr, 1922.
2. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
3. Mincer J. Schooling, Experience, and Earnings. – New York: National Bureau of Economic Research, 1974.
4. Coleman J.S. "Social Capital in the Creation of Human Capital." American Journal of Sociology, 1988, Vol. 94 (Supplement), pp. 95–S120.
5. Bourdieu P. "The Forms of Capital." In: Richardson J. (ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood Press, 1986, pp. 241–258.
6. Granovetter M.S. "The Strength of Weak Ties." American Journal of Sociology, 1973, Vol. 78(6), pp. 1360–1380.
7. Sen A. Development as Freedom. — New York: Alfred A. Knopf, 1999.
8. ILO. World Employment and Social Outlook: Trends for Women. – Geneva: International Labour Organization, 2018.
9. Kabeer N. Reversed Realities: Gender Hierarchies in Development Thought. – London: Verso, 1994.
10. Standing G. The Precariat: The New Dangerous Class. – London: Bloomsbury Academic, 2011.
11. Polanyi K. The Great Transformation: The Political and Economic Origins of Our Time. – Boston: Beacon Press, 2001 (orig. 1944).
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-836-son qarori.